

## BOLALARING JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISHI UYG'UNLIGINI TA'MINLASH METODIKASI

Umarova Mehriniso Ibragim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Qoidali o'yinlar barcha o'yinlar kabi amaliy faoliyat hisoblanadi. Lekin bolalar belgilangan qoidaga amal qilishlari talab etiladi. Belgilangan qoidalar kichkintoylarda mas'uliyatli bo'lishni tarbiyalaydi.

**Kalit so'z:** xulq-atvor, maktabgacha yosh, bolalar, kognitiv, o'yin, rivojlanish.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar jamoada hamjihat ishslash, atrofdagilar bilan murosada bo'lishga asta –sekin qoidali o'yinlar asosida o'rghanib boradi. Har bir qoidali o'yinlar o'z g'oyasi va mazmuniga egadir. O'yin davomida qoidalarning to'g'ri bajarilishi "to'g'ri" yoki "noto'g'ri", "o'yin qoidasi buzildi", degan baholar bilan belgilanadi. Bolalar o'yin vaqtida o'z-o'zini nazorat qilishni o'rghanib boradi. Albatta, har bir o'yin so'ngida natija tarbiyachi tomonidan muhokama qilinishi, unda qo'yilgan maqsad, qoida va erishilgan natijalarga e'tibor qaratilishi kerak. O'yin so'ngida qatnashchilarni rag'batlantirish, faol ishtirokchilarni maqtash – kelgusi o'yinlarning samarali o'tishini ta'minlaydi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha turdag'i qoidali o'yinlar mazmuniga ko'ra o'z qoidalariiga ega bo'ladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'yin harakatlari orqali amalga oshiriladigan o'yin vazifasining mavjudligi;
- o'ynovchilarning harakat va munosabatlari qoidalari bilan yo'lga solib turilishi;
- o'yinda qoida va tayyor mazmunning mavjudligi;
- o'yinning ta'lim-tarbiyaviy mazmuni o'yin harakatlari vaqoidalarida mujassam bo'lib, ular bolalar uchun mustaqil vazifa sifatida namoyon bo'lmaydi.

Bolalar o'yining o'ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, qishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. O'yin paytida hona bolalar uchun dengiz, o'rmon, metro, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin..Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qaxramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o'rniga o'zi gapiaveradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechilmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Bolalarning o‘zi yaratgan o‘yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o‘yining g‘oyasi, mazmuni, o‘yin harakatlari, rollar, o‘yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

Tarbiyachining o‘yin jarayoniga rahbarlik qilishi metodikasini egallagan bo‘lishi o‘yinlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunga har bir yosh gruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiylarini darajasi harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog‘lig‘ining ahvoli, o‘ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, uyini o‘tkazish o‘rni, shuningdek bolalar qiziqishlarini o‘ziga xos xususiyatlarini. Harakatli o‘yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongini o‘sishi, ular to‘plagan harakat tajribasini, mакtabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o‘zgartirib turiladi. Katta guruhda bolalar uchun harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko‘ra murakkablashtiriladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o‘yinlar, shuningdek jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o‘yinlarni, o‘yin estafetasi, sport o‘yinlarini o‘ynaydilar. Ularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko‘nikmalining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarni yangi o‘yin bilan tanishtirish. Uning mazmuni va qoidalarni tushuntirishi tarbiyachidan puxta tayyorgarligini talab etadi. Ayrim o‘yinlarning mazmuni oldindan bo‘ladigan suhabatlar asosida bolalarni bilimlarini oydinlashtirish mumkin. Ularning tasavvurlari aniqlashadi, o‘yin obrazlarga nisbatan munosabat tarkib topadi, asosiy xayol o‘sadi. O‘yinlarni tushuntirish ularning turlariga ko‘ra har-xil o‘tishi mumkin, biroq bu tadbir doimo emotsional jihatdan qizig‘arli, bolalarni quvnoq o‘yin faoliyatiga tayyorlaydigan, o‘yinni tezroq boshlash istagini tug‘diradigan va o‘yin topshiriqlarini ishtiyoq bilan bajarishga undaydigan bo‘lishi kerak.

Mazmunsiz o‘yinni tushuntirish qisqa, aniq va ifodali ohangda bo‘lishi lozim. Tarbiyachi o‘yin harakat izchilligini tushuntiradi, bolalar va o‘yin atributlarining joylashish o‘rni (kichik va o‘rta guruhda buyumlarni mo‘ljallab, katta guruhlarda esa mo‘jalga olmay ko‘rsatadi) fazo iborasidan foydalangan holda ko‘rsatadi va qoidalarni aniqlashtiradi. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarga bir necha savollar beradi. O‘yinni qoidasi bolalarga tushunarli bo‘lsagina o‘yin quvnoqlik va uyushqoqlik bilan bilan o‘tadi.

Mazmunli o‘yinlarni tushuntirish. Tarbiyachining vazifasi bolalar ko‘zi o‘ngida o‘yin vaziyatining ko‘rgazmali manzarasini gavdalantirishdan, o‘yin obrazlarini yorqin tasvirlashdan, bolalar tasavvuri va hislariga ta’sir etishdan, ularning ijodiy tashabbusni faollashtirishdan iboratdir. Katta guruhlarda o‘yin mazmuni eslashni

bolalarning o‘zlariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ulardan biri o‘yin harakatlarining borishini bayon qiladi, ikkinchisi qoidalarni sanab beradi. Keyinchalik bolalar o‘zlarini tarbiyachining yordamisiz o‘ynni tashkil eta boshlaydilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. U Mekhriniso “The use of creative games in the educational process in preschool education” Web of Scientist: International Scientific Research Journal <https://wos.academiascience.org>. Published: May 19, 2022
2. M Umarova “MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOSLIGI” Журнал естественных наук, 2022/8/25 <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/natscience/article/view/6538>
3. M Umarova “PRINCIPLES OF COMMUNICATION CULTURE DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN” Conferencea, 2023/3/7
4. U Mehriniso “BOLALARDA EKALOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH” TADQIQOTLAR, <http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/526/505> 11-son\_1-to‘plam\_Aprel-2023
5. MI qizi Umarova “PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN’S PHYSICAL AND MENTAL DEVELOPMENT IN RULED GAMES” Educational Research in Universal Sciences, 295-297 2023.5.24 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2352>
6. M Umarova, A Ro‘ziyeva “MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYATNING AHAMIYATI” Наука и инновация, 2023 1(6), 33–35 <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/14283>
7. MI qizi Umarova “RIVOJLANIRUVCHI O ‘YIN TEXNOLOGIYASI VA UNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI” Educational Research in Universal Sciences, 1172-1176 2023.6.16 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3037>
8. MI kizi Umarova “DEVELOPMENTAL GAME TECHNOLOGY AND ITS IMPORTANCE IN THE PHYSICAL AND MENTAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN” Educational Research in Universal Sciences 196-198 2023.7.27 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3368>
9. MI qizi Umarova “QOIDALI O‘YIN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING UYG ‘UN RIVOJLANISHI VOSITASI SIFATIDA” Educational Research in Universal Sciences 193-195 2023.7.27 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3366>